


9. Sonlarni qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:

Tuyalar

Xona birliklari asosida
amallar bajarish,
sonni yozish usuli.



1. Misollarni xona birliklarining grafik ko'rinishi yordamida qanday yechish mumkinligini tushuntirib bering.

$$\text{○ ○ ○} + \text{○ ○ ○} = \text{○ ○ ○ ○ ○ ○ ○ ○ ○}$$

$$\text{○ ○ ○ ○ ○ ○} - \text{○ ○ ○} = \text{○ ○ ○}$$



2. Quyidagi ifodalar uchun grafik modellar yarating:

24 va 14, 37 va 12, 71 va 28 sonlari yig'indisi;
76 va 15, 65 va 24, 99 va 25 sonlari ayirmasi.



3. Karvon boshida jigarrang tuya ketyapti. Uning misoli
javobi – keyingi misolning boshi. Tuyalarni shu tartibda
qo'yib chiqing. Qanday so'z chiqdi?



$$12 + 11$$



$$20 - 8$$



$$11 - 6$$



$$22 + 4$$



$$23 - 3$$



$$26 - 15$$



$$12 + 10$$



4. Xo'jalikda 25 kilogramm jigarrang tuya juni, 11 kilogramm oq rangli tuya juni va 21 kilogramm och jigarrang tuya juni yig'ib olindi. Jigarrang jun oq rangli jundan qancha ko'p? Oq rangli jun och jigarrang jundan qancha kam? Hammasi bo'lib qancha jun yig'ib olingan?

9. Sonlarni qo'shish va ayirish



5. To'g'ri tengsizliklardan foydalanib, yashiringan so'zni toping.


$69 - 15 > 75 - 14$	B
$41 - 10 < 15 + 32$	K
$97 - 14 > 10 + 63$	A
$23 + 32 > 56 - 22$	R

$43 - 22 > 56 - 13$	M
$26 + 23 > 13 + 34$	V
$55 - 15 < 14 + 31$	O
$82 - 12 > 71 - 10$	N

--	--	--	--	--	--



6. Chizmalardan foydalanib, masalalar tuzing va ularni yeching.



7. Ikki o'rakchili tuya yana qanday atalishini toping.

A	$14 + 32$	I	$10 + 31$	N	$77 - 34$
B	$89 - 42$	Q	$60 - 20$	R	$85 - 54$
E	$23 + 32$	L	$12 + 45$	T	$60 - 10$

47	46	40	50	31	41	46	43



8. Birinchi to'dadagi tuyalardan 45 l, ikkinchi to'dadagi tuyalardan undan 12 l kam sut sog'ib olindi.
Jami necha litr sut sog'ib olingan?